

## MANTIQ BU – ISHONCH BILAN XATO QILISH SAN'ATI

**Ganiyeva Gulnora Abdusalamovna**

Toshkent Davlat Pedagogika

Universiteti magistri

Telefon: +998909250121

[gulnoraganiyeva25@gmail.com](mailto:gulnoraganiyeva25@gmail.com)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning maqsad-vazifalari va mantiqiy masalalar va misollar orqali o'quvchilarni dars jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida qo'llaniladigan namunalardan berilgan.

### Kalit so'zlar:

Boshlang'ich sinflarda matematika, fikrlash, usullar, intellektual tafakkur, rivojlantirish, qiziqishlar, qobiliyat, mezon, tajriba, to'g'ri va izchil fikrlash, mantiqiy amallar, arifmetik amallar, sonlar.

*(Jozef Vud Kratch)*



Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish, boshlang'ich matematik ta'limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim.

Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, o'qitish, sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilar intellektual tafakkurini shakllantirish asosida o'quvchilar qobiliyati va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi.


Eng avvalo, o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga erishish matematik bilimlarni egallashning asosiy mezoni hisoblanadi. Har bir pedagog buni o'z ish tajribasidan kelib chiqqan holda amalga oshirishi mumkin.

Matematika to'g'ri va izchil fikrlashga, mulohaza yuritishga o'rgatadi. Matematika ortiqcha qayta-qayta sanashlardan xalos etadi, ma'lum narsa yordamida ilgari noma'lum bo'lgan narsalarni topishimizga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonida mantiqiy matematik savollar, jumboqlar va boshqotirma masalalardan foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda samarali usullardan biridir. Bu jarayon olgan bilimlarga asoslangan ekanligini o'quvchi tushunib, fanni o'rganishga intilishi tobora oshib boradi, har bir darsni qiziqish bilan kutadi.

Jumladan, arifmetik amallarni puxta egallashda quyidagi sonlar bo'yicha mantiqiy masalalarni keltirishimiz mumkin.


**Mantiqiy masalalar:**

1. Yetishmayotgan sonni aniqlang:




- A.4    B.5    D.6    C.3

2. Sonli qatorni davom ettiring:




- A.11    B.16    D.18    C.22

3. Tushirib qoldirilgan sonni toping:



- A.154    B.122    D.164    C.100

4. Yetishmayotgan sonni aniqlang:



- A.6    B.7    D.3    C.5

5.Sonlar qatorini davom ettiring:

6 7 9 13 21 ?

A.37 B.29 D.40 C.32

**Yechim:**

1.Ko'tarilgan "qo'llar" yig'indini, tushirilgani esa ayirmaning, "bosh" qismi ifodaning qiymatni anglatadi: Shunda  $(5-2=3), (3+3=6), (7-2=5)$  ? o'rnida 5 soni qo'yiladi.

2. 6 8 10 11 14 14 18 sonlar tepa qismida 3 ga,  
pastki qismida 4 ga o'sib bormoqda.  $(6+4, 8+3, 10+4, 11+3, 14+4, 11+3)$ .  
? o'rnida 18 soni bo'ladi.

3.Qavs ichida tashqarisidagi sonlar yig'indisi 2 marta orttitilgan qiymati berilgan.  
 $(17+39)*2=112, (28+49)*2=154$ . Demak, javob 154 bo'ladi.

4."Oyoqlar"dagi sonlar yig'indisining yarmi, "bosh"dagi songa teng. Ya'ni  
 $(6+4)/2=5, (3+5)/2=4, (8+2)/2=5$ . Demak, javob 5 qiymatga teng.

5.Har bir keyingi son 2 marta orttirilib, 5 taga kamaytirilgan qiymatga teng. Ya'ni  $6*2-5=7$   
 $7*2-5=9, 9*2-5=13, 13*2-5=21, 21*2-5=37$ . Natija 37 ga teng.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva, Boshlang'ich hsinflarda matematika o'qitish metodikasi, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2005